

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**TADQIQOTCHILIK KOMPITENTLIGI PEDAGOGIK MUAMMO  
SIFATIDA.**

**Ergashev Nozim Nabiyeovich**

*Qo'qon davlat universiteti 13.00.01- Pedagogika nazariyasi.  
Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti*  
[nozimnns@gmail.com](mailto:nozimnns@gmail.com)  
(+998901501048)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tadqiqotchilik kompetensiyasi psixologik va pedagogik muammo sifatida o'rganiladi. Unda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy izlanish olib borishning dolzarbligi, tadqiqot tushunchasi va uning tarixiy-falsafiy, psixologik hamda pedagogikyondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojida muhim omil sifatida talqin etiladi. Maqolada xalqaro va mahalliy olimlarning fikrlari orqali bu kompetensiyaning shakllanish bosqichlari yoritiladi va ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish zarurligi asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *tadqiqot, kompetensiya, o'qituvchi, ta'lim, izlanish, pedagogika, psixologiya*

**Аннотация:** *В статье исследуется исследовательская компетентность как психолого-педагогическая проблема. Рассматривается актуальность развития исследовательских навыков у будущих педагогов, дается анализ понятий исследования с философских, психологических и педагогических позиций. Подчеркивается, что исследовательская деятельность является важной составляющей профессионального развития преподавателя. На основе взглядов зарубежных и отечественных ученых раскрываются этапы формирования исследовательской компетентности и необходимость развития научной культуры в системе образования.*

**Ключевые слова:** *исследование, компетентность, преподаватель, образование, исследовательская деятельность, педагогика, психология*

**Abstract:** *This article explores research competence as a psychological and pedagogical issue. It discusses the significance of developing research skills among future teachers and analyzes the concept of research from philosophical, psychological, and pedagogical perspectives. The study emphasizes that research competence is a crucial component of a teacher's professional growth. Based on both international and local scholars' views, the paper outlines the stages of forming research competence and highlights the need to cultivate a research culture in the education system.*

**Keywords:** *research, competence, teacher, education, inquiry, pedagogy, psychology*  
Mamlakatimizning taraqqiyotida ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyati yuqori ekanligi doimo takidlanadi. Bu borada "Uzluksiz talim tizimini yanada takomillashtirish

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, maktabgacha talim muassasalari, umumiy o'rta talim sifatini tubdan oshirish, fanlarni o'qitishni chuqurlashtirish, oliy talim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag'batlantirish" ga katta e'tibor qaratilishi ko'zda tutilgan [1.15]

Professor A.I.Rasulovning fikricha "talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga layoqatlarining mavjudligi masalasi mutaxassislarning diqqat markazidagi muammolarga aylanmoqda". [2:369] Bundan tashqari Pedagogika fanlar nomzodi Kayumova.N.A "o'quvchi talabalarining ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish sohasidagi ilmiy ishlar, maqolalarni o'rganish natijasida oliy talimda ilmiy tadqiqotishi bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talabalar, magistrlaroldida quyidagi muammolar mavjud" deb xisoblaydi.

1. Ilmiy tadqiqot mavzusini to'g'ri tanlay o'lmaslik.
  2. Ilmiy tadqiqot metodlari va undan foydalanishni bilmaslik.
  3. Ilmiy tadqiqot ishi asosnomasini mustaqil tayyorlay bilmaslik.
  4. Adabiy manbalar bilan ishlashda qiyinchiliklarga uchrash.
  5. Bajarilgan tadqiqot ishi taqdimotini amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lmaslik."
- [3:8]

Yuqorida olimlarning olib borgan tadqiqotlaridan kelib chiqib xulosa qilamizki ilmiy tadqiqot olib borishda bo'lajak pedagoglarda tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda tadqiqot nima? Kompetentlik nima degan savolar kelib chiqadi va quyida ushbu savollarga javoblarni berib o'tamiz.

Tadqiqot-Tadqiq ishi, tekshirish o'rganish ishi, ilmiy tekshirish ishining natijasi

"Tadqiqot" so'zining lug'aviy manosi — biror narsani chuqur o'rganish, tahlil qilish, uning mohiyatini anglashga qaratilgan harakat. Bu so'z arab tilidagi "tahqiq" so'zidan olingan bo'lib, haqiqatni topish, malum bir masala yuzasidan asosli xulosalar chiqarishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Qisqacha aytganda:

Tadqiqot — bu o'rganish, tekshirish, analiz qilish, isbotlash va yangi bilim yaratish jarayonidir. [4] Rus lug'atida keltirilishicha "Isledovaniya" "Tadqiqot so'zi" ildizi "sled" "iz" yani biror bir narsani izlash, kuzatish izidan borish manolariga ega bo'lib "izidan borish" manosini anlatadi. [5]

Ingliz tili lug'atida "Research" "Tadqiqot" manosi faktlarni aniqlash, nazariyalarni o'rnatish yoki qayta ko'rib chiqish, yangi xulosalar yoki bilimlarni ishlab chiqish uchun mavzuni tizimli tekshirish yoki o'rganish. [6] O'zbek olimi I. To'xtasinovga ko'ra, tadqiqot — bu bilimni chuqurlashtirish, haqiqatga yetishish yo'lida qilinadigan izchil faoliyatdir. [7.13] Rus olimi V.V. Kraevskiy tadqiqotni "ilmiy asoslangan metodlar orqali yangi bilim olish jarayoni" deb ataydi. [8.112]

Amerikalik olim John W. Creswell esa tadqiqotni "ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va u orqali muammoni tushunish jarayoni" sifatida izohlaydi. [9.3]

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

Tadqiqotlarni quyida yo'nalishlariga qarab yani pedagogik, psixologik va falsafiy yondashuvlriga qarab dunyo olimlarining tariflarini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik qarashlar:

John Dewey: "O'quvchi mustaqil fikrlashga o'rganmasa, haqiqiy ta'lim bo'lmaydi. Tadqiqot — o'qituvchining asosiy metodidir." [10.25] Paulo Freire: "Tadqiqotga asoslangan ta'lim — bu talabaning dunyoni o'zgartirishiga zamin yaratadi." [11.54]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki: Tadqiqot — bu o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan bilim olish, muammoni hal qilish va tushunchalarni aniqlashtirish maqsadida olib boriladigan izlanish faoliyatidir. Unda savol qo'yish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi bosqichlar mavjud. Pedagogik jarayonda tadqiqot — bu mustaqil fikrlashni, tanqidiy yondashuvni, izlanishga qiziqishni va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish o'quvchilarni faol, ongli va mas'uliyatli o'rganuvchiga aylantiradi. Ayniqsa, kelajak o'qituvchisi uchun tadqiqot nafaqat kasbiy rivojlanish vositasi, balki ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Shu sababli, zamonaviy ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish usullari keng qo'llanilmoqda.

Xozirgi zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, tadqiqot — bu muammoni anglash, malumot yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali bilim yaratish jarayonidir. U o'quvchi va o'qituvchida mustaqil fikrlash, tahlil qilish, manbalar bilan ishlash va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot faoliyati orqali talim ma'zuni chuqurlashadi, yoshlarda intilish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv shakllanadi. Talimda tadqiqotga asoslangan yondashuvni joriy etish o'quv jarayonini samarali, faol va hayotga yaqinlashtiradi. Shu sababli, tadqiqot olib borish — zamonaviy pedagogikaning asosiy qismidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmoni. // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2017 y., 6-son, 70-modda.-14-bet

2. Talabalar tadqiqotchilik qobiliyati mezonlari va diagnostikasi. A. I. Rasulov Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, psixologiya fanlari doktori, professor v.b. Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences 2 (NUU Conference 1), 369-bet

3. Kayumova Nasiba Ashurovna, "Oliy talim muassasalari talabalarini ilmiy tadqiqot ishiga yo'naltirish muammolari va ularning echimlari" ZAMONAVIY TALIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2018, 11. 8-bet

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

4. To'xtasinov, I. (2015). Ilmiy-tadqiqot asoslari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. – 13-bet.
5. Kraevskiy, V.V. (2001). Obshaya pedagogika: Uchebnik dlya vuzov. Moskva: Akademiya. – 112-bet.
6. Creswell, J.W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches (4th ed.). Los Angeles: SAGE Publications. – 3-bet.
7. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan. – Sahifa 25
8. Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum. – Sahifa 54
9. Bruner, J. S. (1960). The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press. – Sahifa 72
10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. – Sahifa 64
11. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. – Sahifa 38

